

O'zbekiston Respublikasida ilmiy kadrlarni tayyorlash va ilm-fan

2025-yil uchun


- I. Oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimi: tayanch doktorantura
- II. Oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimi: doktorantura
- III. Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari (ITTKI)ni bajarish
- IV. Ilm-fan va ilmiy kadrlar tayyorlash statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimi: tayanch doktorantura

Tayanch doktorantura falsafa doktori (Doctor of Philosophy – PhD) ilmiy darajasiga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli hisoblanadi ([23.09.2020-yildagi O'RQ-637-son Qonuni](#)).

O'zbekistonda tayanch doktoranturaning asosiy ko'rsatkichlari

(tegishli yil uchun, kishi)



2025-yilda tayanch doktoranturaga ega tashkilotlar soni **165 tani** tashkil etib, 2024-yilga nisbatan **19 taga** (yoki **13,0 foizga**) oshdi.

Tayanch doktoranturaga qabul qilinganlar soni 2025-yilda **4 159 nafarni** tashkil etib, 2024-yilga nisbatan **324 nafarga** (yoki **8,4 foizga**) ko'paydi. 2025-yil oxiriga tayanch doktoranturada tahsil olayotgan doktorantlar soni **8 326 nafarni** tashkil etib, 2024-yilga nisbatan **334 nafarga** (yoki **4,2 foizga**) oshdi. 2025-yilda tayanch doktorantura bitiruvchilari soni **2 256 nafarni** tashkil etib, 2024-yilga nisbatan **22 nafarga** (yoki **1,0 foizga**) ko'p bo'ldi.

**Tayanch doktorantura asosiy ko'rsatkichlarining
hududlar kesimida taqsimlanishi**
(2025-yil uchun, kishi)

	Tayanch doktoranturaga ega tashkilotlar soni (birlik)	Tayanch doktoranturaga qabul qilinganlar soni	Doktorantlar soni	Tayanch doktorantura bitiruvchilari soni
O'zbekiston Respublikasi	165	4 159	8 326	2 256
<i>hududlar:</i>				
Qoraqalpog'iston Resp.	5	160	398	98
Andijon viloyati	7	201	404	115
Buxoro viloyati	6	310	831	168
Jizzax viloyati	2	49	94	18
Qashqadaryo viloyati	3	94	193	71
Navoiy viloyati	3	75	226	68
Namangan viloyati	5	330	618	217
Samarqand viloyati	14	386	825	295
Surxondaryo viloyati	6	156	294	44
Sirdaryo viloyati	2	100	207	54
Toshkent viloyati	17	238	415	118
Farg'ona viloyati	7	247	632	145
Xorazm viloyati	4	131	347	73
Toshkent shahri	84	1 682	2 842	772

2025-yilda tayanch doktoranturaga ega tashkilotlar eng ko'p Toshkent shahrida (**84 ta**), Toshkent (**17 ta**) va Samarqand (**14 ta**) viloyatlarida qayd etildi. Eng kam sonli tashkilotlar esa Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida (**har birida 2 tadan**), shuningdek, Qashqadaryo va Navoiy viloyatlarida (**har birida 3 tadan**) kuzatildi.

2025-yilda tayanch doktoranturaga eng ko'p qabul qilinganlar Toshkent shahriga (**1 682 nafar**), Samarqand (**386 nafar**) va Namangan (**330 nafar**) viloyatlariga to'g'ri keldi. Jizzax (**49 nafar**), Navoiy (**75 nafar**) va Qashqadaryo (**94 nafar**) viloyatlarida esa qabul qilinganlar soni eng kam bo'ldi.

Yil oxiriga tayanch doktoranturada tahsil olayotgan doktorantlar soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar Toshkent shahri (**2 842 nafar**), Buxoro (**831 nafar**) va Samarqand (**825 nafar**) viloyatlarida kuzatildi. Eng past ko'rsatkichlar Jizzax (**94 nafar**), Qashqadaryo (**193 nafar**) va Sirdaryo (**207 nafar**) viloyatlarida qayd etildi.

Tayanch doktoranturani eng ko'p bitirganlar Toshkent shahri (**772 nafar**), Samarqand (**295 nafar**) va Namangan (**217 nafar**) viloyatlarida qayd etildi. Jizzax (**18 nafar**), Surxondaryo (**44 nafar**) va Sirdaryo (**54 nafar**) viloyatlarida esa doktorantura bitiruvchilari kam bo'ldi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Tayanch doktoranturada tahsil olayotgan doktorantlar soni \(jami\)](#)

[Tayanch doktoranturada tahsil olayotgan doktorantlar soni \(ayollar\)](#)

[Tayanch doktoranturada tahsil olayotgan doktorantlar soni \(erkaklar\)](#)


II. Oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimi: doktorantura

Doktorantura fan doktori (Doctor of Science – DSc) ilmiy darajasiga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli hisoblanadi ([23.09.2020-yildagi O'RQ-637-son Qonuni](#)).

Doktorant – ilmiy tashkilot yoki ta'lim muassasalariga tayanch doktorantura yoki doktoranturaga belgilangan tartibda qabul qilingan shaxs ([22.05.2017-yildagi 304-son VMQ](#)).

O'zbekistonda doktoranturaning asosiy ko'rsatkichlari

(tegishli yil uchun, kishi)



2025-yilda doktoranturaga ega tashkilotlar soni **124 tani** tashkil etib, 2024-yilga nisbatan **24 taga** (yoki **24,0 foizga**) oshdi.

2025-yilda doktoranturaga qabul qilinganlar soni **604 nafarni** tashkil etib, 2024-yilga nisbatan **114 nafarga** (yoki **23,3 foizga**) ko'paydi. 2025-yil oxiriga doktorantlar soni **1 309 nafarga** yetib, 2024-yilga nisbatan **154 nafarga** (yoki **13,3 foizga**) oshdi. 2025-yilda doktorantura bitiruvchilari soni **252 nafarni** tashkil etib, 2024-yilga nisbatan **10 nafarga** (yoki **3,8 foizga**) kamaydi.

Doktorantura asosiy ko'rsatkichlarining hududlar kesimida taqsimlanishi
(2025-yil uchun, kishi)

	Doktoranturaga ega tashkilotlar soni (birlik)	Doktoranturaga qabul qilinganlar soni	Doktorantlar soni	Doktorantura bitiruvchilari soni
O'zbekiston Respublikasi	124	604	1 309	252
<i>hududlar:</i>				
Qoraqalpog'iston Resp.	5	65	76	11
Andijon viloyati	7	25	35	9
Buxoro viloyati	4	26	54	9
Jizzax viloyati	1	1	4	1
Qashqadaryo viloyati	2	6	7	2
Navoiy viloyati	3	5	21	2
Namangan viloyati	3	23	34	-
Samarqand viloyati	9	86	166	50
Surxondaryo viloyati	3	39	45	2
Sirdaryo viloyati	2	1	29	-
Toshkent viloyati	12	60	85	26
Farg'ona viloyati	4	13	36	11
Xorazm viloyati	2	3	9	1
Toshkent shahri	67	251	708	128

2025-yilda doktoranturaga ega tashkilotlar eng ko'p Toshkent shahrida (**67 ta**), Toshkent (**12 ta**) va Samarqand (**9 ta**) viloyatlarida qayd etildi. Eng kam tashkilotlar esa Jizzax viloyatida (**1 ta**), shuningdek, Qashqadaryo, Sirdaryo va Xorazm viloyatlarida (**har birida 2 tadan**) kuzatildi.

2025-yilda doktoranturaga eng ko'p qabul qilinganlar Toshkent shahriga (**251 nafar**), Samarqand viloyati (**86 nafar**) va Qoraqalpog'iston Respublikasiga (**65 nafar**) to'g'ri keldi. Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida (**har birida 1 nafardan**), shuningdek, Xorazm viloyatida (**3 nafar**) qabul qilinganlar soni eng kam bo'ldi.

Yil oxiriga doktorantlar soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar Toshkent shahri (**708 nafar**), Samarqand (**166 nafar**) va Toshkent (**85 nafar**) viloyatlarida kuzatildi. Eng past ko'rsatkichlar Jizzax (**4 nafar**), Qashqadaryo (**7 nafar**) va Xorazm (**9 nafar**) viloyatlarida qayd etildi.


2025-yilda doktoranturani eng ko'p bitirganlar Toshkent shahri (**128 nafar**), Samarqand (**50 nafar**) va Toshkent (**26 nafar**) viloyatlarida qayd etildi. Jizzax va Xorazm viloyatlarida (**har birida 1 nafardan**) esa doktorantura bitiruvchilari kam bo'ldi. Namangan va Sirdaryo viloyatlarida 2025-yilda doktorantura bitiruvchilari bo'lmadi.

III. Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari (ITTKI)ni bajarish

Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari (ITTKI) insoniyat, madaniyat va jamiyat haqidagi bilimlarni o'z ichiga olgan bilimlar hajmini oshirishga, shuningdek, mavjud bilimlarni qo'llashning yangi usullarini ishlab chiqishga qaratilgan ijodiy va tizimli faoliyatni ifodalaydi.

ITTKIni bajargan tashkilotlar soni


(tegishli yil uchun, birlik)



2025-yilda ITTKIni bajargan tashkilotlar soni **279 tani** tashkil etib, 2024-yilga nisbatan **15 taga** (yoki **5,7 foizga**) oshdi. ITTKIni bajargan tashkilotlarning eng ko'p qismi davlat sektoriga to'g'ri kelib, **124 tani** tashkil etdi. Ularning soni 2024-yilga nisbatan **9 taga** (yoki **7,8 foizga**) ko'paydi. Oliy ta'lim sektorida ITTKIni bajargan tashkilotlarning mavjud soni **99 ta** bo'lib, 2024-yilga nisbatan **6 taga** (yoki **6,5 foizga**) oshdi. Tadbirkorlik sektorida ITTKIni **55 ta tashkilot**, xususiy notijorat sektorda esa **1 ta tashkilot** bajardi. Ushbu sektorlar bo'yicha ko'rsatkichlar 2024-yilga nisbatan o'zgarishsiz qoldi.

ITTKIga qilingan xarajatlar

(tegishli yil uchun, mlrd so'm)




¹⁾ Xususiy notijorat sektorda ITTKIga qilingan xarajatlar 2024-yilda **5,1 mln so'mni**, 2025-yilda esa **9,7 mln so'mni** tashkil etdi

2025-yilda ITTKlga qilingan xarajatlar **1 680,6 mlrd so'mni** tashkil etib, 2024-yilga nisbatan **106,5 mlrd so'mga** (yoki **6,8 foizga**) o'sdi. Xarajatlarning eng katta hajmi davlat sektoriga to'g'ri kelib, **982,4 mlrd so'mni** tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkich 2024-yilga nisbatan **109,3 mlrd so'mga** (yoki **12,5 foizga**) ko'paydi. Tadbirkorlik sektorida ITTKlga qilingan xarajatlar **464,5 mlrd so'mni** tashkil etib, 2024-yilga nisbatan **45,5 mlrd so'mga** (yoki **10,9 foizga**) oshdi. Xususi notijorat sektorda ITTKlga xarajatlar **9,7 mln so'mga** yetib, **4,6 mln so'mga** (yoki **90,2 foizga**) ko'paydi.

Oliy ta'lim sektorida ITTKlga qilingan xarajatlar **233,7 mlrd so'm** bo'lib, 2024-yilga nisbatan **48,3 mlrd so'mga** (yoki **17,1 foizga**) kamaydi.

ITTKlni bajargan mutaxassis-tadqiqotchilar soni ¹⁾

(tegishli yil uchun, ming kishi)



2025-yil oxiriga ITTKlni bajargan mutaxassis-tadqiqotchilar soni (pedagogik faoliyat bilan bir qatorda ITTKlni bajargan oliy ta'lim tashkilotlarining ilmiy-pedagogik xodimlarini qo'shgan holda) **43,1 ming nafarga** yetib, 2024-yilga nisbatan **9,5 ming nafarga** (yoki **28,3 foizga**) o'sdi.

¹⁾ Pedagogik faoliyat bilan bir qatorda ITTKlni bajargan oliy ta'lim tashkilotlarining ilmiy-pedagogik xodimlarini qo'shgan holda.

²⁾ Falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga, shuningdek, xorijiy davlatda olingan fan nomzodi ilmiy darajasi yoki unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajaga ega shaxslarni qo'shgan holda.

2025-yil oxiriga ITTKlni bajargan mutaxassis-tadqiqotchilar orasida ayollar soni **17,4 ming nafar** bo'lib, 2024-yilga nisbatan **3,3 ming nafarga** (yoki **23,4 foizga**) oshdi. Erkaklar soni esa **25,7 ming nafarga** yetib, **6,2 ming nafarga** (yoki **31,8 foizga**) ko'paydi. Mutaxassis-tadqiqotchilar umumiy sonida ayollar ulushi **40,4 foizni**, erkaklar ulushi esa **59,6 foizni** tashkil etdi.

Falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga, shuningdek, xorijiy davlatda olingan fan nomzodi ilmiy darajasi yoki unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajaga ega mutaxassis-tadqiqotchilar soni 2025-yilda **15,5 ming nafar** qayd etilib, 2024-yilga nisbatan **1,4 ming nafarga** (yoki **9,9 foizga**) o'sdi. Fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga ega mutaxassis-tadqiqotchilar soni **4,8 ming nafarni** tashkil etib, **1,8 ming nafarga** (yoki **60,0 foizga**) ko'paydi.

ITTKI asosiy ko'rsatkichlarining hududlar kesimida taqsimlanishi (2025-yil uchun)

	ITTKlni bajargan tashkilotlar soni (birlik)	ITTKlga qilingan xarajatlar (mlrd so'm)	ITTKlni bajargan mutaxassis- tadqiqotchilar soni ¹⁾ (kishi)		
			jami	ayollar	erkaklar
O'zbekiston Respublikasi	279	1 680,6	43 118	17 416	25 702
<i>hududlar:</i>					
Qoraqalpog'iston Resp.	6	39,5	1 752	769	983
Andijon viloyati	6	10,1	3 267	1 320	1 947
Buxoro viloyati	16	50,6	4 680	1 864	2 816
Jizzax viloyati	4	2,7	1 856	648	1 208
Qashqadaryo viloyati	9	8,3	1 504	437	1 067
Navoiy viloyati	6	185,0	885	287	598
Namangan viloyati	5	5,3	1 537	389	1 148
Samarqand viloyati	21	39,2	4 745	1 819	2 926
Surxondaryo viloyati	6	6,8	800	347	453
Sirdaryo viloyati	8	5,6	182	52	130
Toshkent viloyati	20	70,7	1 939	766	1 173
Farg'ona viloyati	22	18,4	4 042	1 555	2 487
Xorazm viloyati	8	13,8	2 347	1 202	1 145
Toshkent shahri	142	1 224,6	13 582	5 961	7 621

2025-yilda ITTKlni bajargan tashkilotlar eng ko'p Toshkent shahrida (**142 ta**), Farg'ona (**22 ta**) va Samarqand (**21 ta**) viloyatlarida qayd etildi. Eng kam sonli tashkilotlar esa Jizzax (**4 ta**) va Namangan (**5 ta**) viloyatlarida kuzatildi.

¹⁾ Pedagogik faoliyat bilan bir qatorda ITTKlni bajargan oliy ta'lim tashkilotlarining ilmiy-pedagogik xodimlarini qo'shgan holda.

ITTKIga qilingan xarajatlarning eng katta hajmi Toshkent shahri (**1 224,6 mlrd so'm**), Navoiy (**185,0 mlrd so'm**) va Toshkent (**70,7 mlrd so'm**) viloyatlariga to'g'ri keldi. Xarajatlarning eng kam hajmi Jizzax (**2,7 mlrd so'm**), Namangan (**5,3 mlrd so'm**) va Sirdaryo (**5,6 mlrd so'm**) viloyatlarida qayd etildi.

2025-yil oxiriga ITTKIning mutaxassis-tadqiqotchilar (pedagogik faoliyat bilan bir qatorda ITTKIning oliy ta'lim tashkilotlarining ilmiy-pedagogik xodimlarini qo'shgan holda) eng ko'p Toshkent shahrida (**13 582 nafar**), Samarqand (**4 745 nafar**) va Buxoro (**4 680 nafar**) viloyatlarida qayd etildi. Sirdaryo (**182 nafar**), Surxondaryo (**800 nafar**) va Navoiy (**885 nafar**) viloyatlarida esa ularning soni eng kam bo'ldi.

Hududlarning aksariyatida mutaxassis-tadqiqotchilar orasida erkaklar soni ayollar sonidan yuqori bo'ldi. Faqat Xorazm viloyatida ayollar ulushi erkaklar ulushidan yuqori bo'lib, **51,2 foizni** tashkil etdi. Erkaklarning eng yuqori ulushi Namangan (**74,7 foiz**), Sirdaryo (**71,4 foiz**) va Qashqadaryo (**70,9 foiz**) viloyatlarida qayd etildi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[ITTKIning bajarilgan tashkilotlar soni \(jami\)](#)

[Bajarilgan ITTKI hajmi](#)

[Pedagogik faoliyat bilan bir qatorda ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirgan oliy ta'lim tashkilotlarining ilmiy-pedagogik xodimlarini qo'shgan holda, ITTKIning bajarilgan xodimlar soni \(jami\)](#)

IV. Ilm-fan va ilmiy kadrlar tayyorlash statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Oliy ta'limdan keyingi ta'lim doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o'rganishni va ilmiy izlanishlar olib borishni nazarda tutadigan tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchilik asosida ilmiy darajaga ega ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni ta'minlaydi ([23.09.2020-yildagi O'RO-637-son Qonuni](#)).

O'zbekistonda oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Tayanch doktorantura;
- Doktorantura;
- Mustaqil izlanuvchilik.

Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari (ITTKI) insoniyat, madaniyat va jamiyat haqidagi bilimlarni o'z ichiga olgan bilimlar hajmini oshirishga, shuningdek, mavjud bilimlarni qo'llashning yangi usullarini ishlab chiqishga qaratilgan ijodiy va tizimli faoliyatni ifodalaydi.

O'zbekistonda fan va oliy ta'limdan keyingi ta'lim bo'yicha statistik ma'lumotlar bir martalik **1 fan "Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarining bajarilishi hamda oliy toifali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash to'g'risida"**gi savolnoma asosida shakllantiriladi. Savolnomani ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni amalga oshiruvchi va (yoki) oliy malakali ilmiy hamda ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlovchi yuridik shaxslar taqdim etadi.

Savolnoma bajarilgan ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar hajmi, xarajatlar va ularni moliyalashtirish manbalari, xodimlar soni va tarkibi, shuningdek, tayanch doktorantura va doktoranturaga qabul qilinganlar, ularda tahsil olayotganlar hamda bitiruvchilar soni to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Yig'ma statistik ma'lumotlardan mamlakat ilmiy salohiyatining holati va rivojlanishini baholash, oliy malakali ilmiy kadrlar tayyorlashni monitoring qilish, fan sohasining kadrlar va moliyaviy resurslarini tahlil qilish, davlat dasturlarini ishlab chiqish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish hamda xalqaro hisobotlarni tayyorlash uchun foydalaniladi.

Tadqiqotlar va ishlanmalar statistikasi Barqaror rivojlanish maqsadlarining 9.5-vazifasiga erishishni monitoring qilishda, jumladan, ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarga sarflangan xarajatlarning yalpi ichki mahsulotga nisbatan foizdagi ulushi hamda to'liq bandlik ekvivalentidagi tadqiqotchilarning 1 million nafar aholiga nisbatan soni ko'rsatkichlarini hisoblashda qo'llaniladi.

Foydali havolalar:

[O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni \(23.09.2020-yildagi O'RQ-637-son\)](#)

[O'zbekiston Respublikasining "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi Qonuni \(29.10.2019-yildagi O'RQ-576-son\)](#)

[O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni \(16.02.2017-yildagi PF-4958-son\)](#)

[O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori \(22.05.2017-yildagi 304-son\)](#)

[Fraskati yo'riqnomasi 2015 \(Frascati Manual 2015: Guidelines for Collecting and Reporting Data on Research and Experimental Development\)](#)

[Fan \(ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari\) sohasida statistik ko'rsatkichlarni shakllantirish bo'yicha uslubiy nizom](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
Ijtimoiy soha va barqaror rivojlanish
statistikasi boshqarmasi

Manzil: 100170, Toshkent sh.,
Mustaqillik shoh ko'chasi, 63
El. manzil: info@stat.uz
Tel.: (71) 203-80-00 (ichki raqam: 1305)

